

MANFAATLAR TO'QNASHUVI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY TABIATI

Najimova Jamola Davron qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://orcid.org/0009-0008-5648-7934>

najimovajamola@gmail.com

Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li

Ilmiy rahbar: Konstitutsiyaviy huquq kafedrası

mudiri o'rinbosari, y.f.f.d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15003925>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, uning huquqiy tabiati, xalqaro tajribalar va O'zbekistonning amaldagi huquqiy tizimi o'rganiladi. Bunda, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi jamiyatda tengsizlik, o'zaro nizolarni keltirib chiqarishi, davlat boshqaruvidagi ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu sababli, davlat boshqaruvini shaffoflashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligini oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarurligi qayd etilgan. Maqolada xalqaro tajriba va amaliyotda olingan o'rganishlar, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashishda yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish uchun takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya, davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, xalqaro tajriba, qonunchilik, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash, huquqiy savodxonlik.

THE CONCEPT OF CONFLICT OF INTEREST AND ITS LEGAL NATURE

Najimova Jamola Davron qizi

Tashkent State University of Law

Faculty of Criminal Justice 1-st year student

<https://orcid.org/0009-0008-5648-7934>

najimovajamola@gmail.com

Bokiev Jahongir

Scientific supervisor: Deputy head of Constitutional law

Department of the TSUL, PhD

Abstract. This article analyzes the issues of conflict of interest and corruption prevention in public administration in the Republic of Uzbekistan. The article examines the concept of conflict of interest, its legal nature, international practices, and Uzbekistan's current legal system. It emphasizes that corruption and conflicts of interest can lead to inequality, interpersonal conflicts, and may intensify distrust in public administration. Therefore, it highlights the necessity of enhancing transparency in public administration, developing effective mechanisms to combat corruption, improving the legal literacy of civil servants, and refining normative-legal documents. The article also presents international experiences, studies obtained in practice, and proposes solutions to the problems arising in the fight against conflicts of interest and corruption.

Key words: conflict of interest, corruption, public administration, legal system, international experience, legislation, transparency, anti-corruption efforts, legal literacy.

ПОНЯТИЕ КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ И ЕГО ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА

Нажимова Жамола Даврон кизи

Ташкентский Государственный Юридический Университет

Факультет Уголовного Правосудия, Студентка 1-курса

<https://orcid.org/0009-0008-5648-7934>

najimovajamola@gmail.com

Бокиев Жахонгир Нурматжон углу

Научной руководитель: Заместитель заведующий кафедрой

Конституционнога права, д.ф.ю.н (PhD)

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы конфликта интересов и предотвращения коррупции в государственном управлении Республики Узбекистан. Рассматриваются понятие конфликта интересов, его юридическая природа, международный опыт и действующая правовая система Узбекистана. Подчеркивается, что коррупция и конфликты интересов могут привести к неравенству, внутренним конфликтам и усилить недоверие к государственному управлению. Поэтому акцентируется необходимость повышения прозрачности государственного управления, разработки эффективных механизмов борьбы с коррупцией, повышения правовой грамотности государственных служащих и совершенствования нормативно-правовых актов. В статье также представлены международный опыт, исследования, полученные на практике, а также предложения по решению проблем, возникающих в борьбе с конфликтами интересов и коррупцией.

Ключевые слова: конфликт интересов, коррупция, государственное управление, правовая система, международный опыт, законодательство, прозрачность, борьба с коррупцией, правовая грамотность.

1. KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, rivojlangan davlatlar qatorida o'zining munosib o'rnini egallash maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida jamiyat rivojiga to'siq bo'ladigan asosiy illatlardan biri bo'lgan korrupsiyaning xavfli shakllaridan biri, ya'ni manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish uchun olib borilayotgan ishlar aynan shu maqsadni ko'zlaydi.

Zamonaviy jamiyatda manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishi, davlat boshqaruviga nisbatan aholi ishonchsizligini keltirib chiqarishi sababli, bu masala bo'yicha yangi usullarni izlash o'ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, "Korrupsiya oqibatlarini bilan kurashishdan ko'ra barvaqt oldini olishga o'tish kerak va korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo'li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir" deb bekorga ta'kidlamaganlar.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan subyektlar doirasini va bu to'qnashuvni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. Bu masalaning dolzarbligi quyidagi omillarga asoslanadi:

Birinchidan, davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvi omillarini o'rganish, uning oldini olish uchun obyektiv zaruriyatni ta'minlashni talab qiladi;

Ikkinchidan, davlat boshqaruvini samarali amalga oshirish maqsadida, munosib

nomzodlarni tanlash, ularning kasbiy va huquqiy tayyorgarlik darajasi, moddiy va ijtimoiy ta'minotini oshirishga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish zarurati mavjud.

Ushbu maqola manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, uning huquqiy tabiati, olimlar tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlar tahlili, xalqaro tajriba va O'zbekistondagi huquqiy baza sharhini keltirishni, shuningdek, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berishni maqsad qilgan.

II.METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi omillar va ularning huquqiy asoslari o'rganildi. Ushbu maqolada manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, uning huquqiy tabiati, olimlar tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlar tahlili, xalqaro tajriba va O'zbekistondagi huquqiy baza sharhi keltiriladi. Ushbu tadqiqot ishida tahlil qilish, xolislik qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

III. NATIJALAR

Davlatchilik tizimini yemiradigan, jamiyatlarni parchalab tashlaydigan, insonlar orasida o'zaro nizolarni vujudga keltiradigan, turli yuqori qatlam toifalarini yuzaga keltirib, jamiyatda tengsizlikni shakllantiruvchi omillardan birlari korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi hisoblanadi. Hozirda davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining barcha ko'rinishlariga, uni keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashish uchun istiqbolli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jamie M. Sommer davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelish sabablarini maishiy korrupsiya darajasining oshishiga olib keluvchi omillar bilan izohlagan, deyish mumkin. Uning ta'kidlashicha, xalqaro va milliy tajribadan kelib chiqib, quyidagi omillar maishiy korrupsiyaning yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin: davlat boshqaruvida byurokratiyaning ortiqcha bo'lishi, davlat idoralarining faoliyati yetarlicha shaffof emasligi, davlat xizmatchilarining tashabbuskorligiga rag'bat yetishmasligi va retroaktiv yondashuv ustunlik qilishi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarining zamonaviy talabga mos kelmasligi, davlat xizmatchilarining korrupsiyaga moyilliklarini tahlil qilish metodologiyasining yo'qligi, korrupsiyaga qarshi boshqaruv va nazorat tizimining yetarlicha shakllantirilmagani muammolardan biri sifatida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, aholida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat shakllantirish bo'yicha amaliy choralar yetarlicha ko'rilmagani, davlat xizmatiga qabul qilish va xizmatni o'tash jarayonida korrupsiyaviy holatlarning oldini olish mexanizmlarining yetishmasligi ham muhim omillar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, davlat organlari va ularning tarkibiy tarmoqlarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha yetarli nazariy bilim va moddiy ta'minotning yo'qligi ham ushbu muammoga turtki bo'lishi mumkin [6].

Umuman olganda, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining shakllanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular qatoriga ijtimoiy va madaniy sharoit, institutsional hamda tashkiliy tuzilmalar, axloqiy va siyosiy muhit, shuningdek, iqtisodiy va tarkibiy islohotlar siyosati kiradi. A.Sh.Bekmurodovning "Korrupsiyaga qarshi kurashish" darsligida davlat boshqaruvida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining bir qator sabablariga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Manfaatlar to'qnashuvi turli shakllarda va sharoitlar natijasida paydo bo'lishi mumkin. Bunga misol sifatida quyidagi holatlar ko'rsatiladi: mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilari

yoki deputatlarning tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ manfaat ko'zlab bevosita ishtirok etishi; davlat mablag'larini o'zlashtirish maqsadida ularni tijorat tuzilmalariga yo'naltirish kabi holatlar.

IV.MUHOKAMA

O'zbekistonda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha huquqiy baza mavjud. 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari xodimlari manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda bu haqda xabardor qilishlari va uni bartaraf etish choralarini ko'rishlari shart. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi sifatida belgilangan. Mazkur qonunda, manfaatlar to'qnashuvining quyidagi yangi tahrirdagi tushunchasi qayd etildi: "Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat".

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham davlat fuqarolik boshqaruvi tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etishga va manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soha va tarmoqlarni aniqlash, manfaatlar to'qnashuvi omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasini chuqurroq tushunish uchun uning turli shakllarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu hodisaning asosiy ko'rinishlari qatoriga urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, nepotizm, shafelik, kronizm va favoritizm kabi holatlar kiradi. Davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish maqsadida milliy qonunchilikka turli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Shuningdek, bu yo'nalishda tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xalqaro miqyosda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Ko'plab davlatlarda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va oldini olish bo'yicha maxsus qonunlar qabul qilingan. Masalan, AQShda "Etika bo'yicha hukumat idorasi" (Office of Government Ethics) davlat xizmatchilarining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha qoidalarini belgilaydi. Buyuk Britaniyada esa "Davlat xizmati kodeksi" (Civil Service Code) davlat xizmatchilarining xulq-atvori va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha qoidalarini o'z ichiga oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha aniq qoidalar va mexanizmlarni joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha texnik qo'llanmada manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi ishlatilmagan bo'lsada, lekin quyidagi jumlar keltirilgan: "Umumiy prinspga ko'ra, davlat organlarida shunday sharoit yaratish kerakki, unga xizmatlar ko'rsatish jarayoni oshkora va shaffofligi ta'minlangan bo'lishi toki shaxsiy va o'zgarlar manfaatlariga asoslangan sovg'a va mehmondo'stlik munosabatlari rasmiy

xarakterlar va qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsata olmasligi zarur" [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti korrupsiya va uning muhim shakllaridan biri bo'lgan manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ushbu tashabbuslar quyidagilarda aks etadi: davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralash, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko'tarish jarayonida shaffoflikni ta'minlovchi davlat xizmati tizimini shakllantirish; davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish; ularning mehnat haqlarini yetarli darajada belgilash; davlat xizmatini o'tash jarayonida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi hamda shaffofligini oshirish, korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish uchun samarali huquqiy mexanizmlar joriy etish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash kabi choralarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi hamda reytinglarni tuzuvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash yo'nalishida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda [5].

B.Ismailov ham o'zining maqolasida korrupsiya va davlat boshqaruvidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish borasidagi muammolar va ularni bartaraf etish uchun bir qancha takliflar bergan. Jumladan, B.Ismailov "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi, "Davlat xizmatchisining odob-axloq kodeksi to'g'risida"gi, "Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi to'g'risida"gi, "Davlat xizmatchilarining daromadlarini, mol-mulklarini hamda manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi, "Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi va davlat xizmatchisining maqomini, uning huquq va erkinliklarini belgilovchi, xizmatni o'tashdagi chegaralar va taqiqlarni o'rnatuvchi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora tadbirlarni takomillashtiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar tez qabul qilish maqsadga muvofiq, deydi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli farmoni va PQ-5177-sonli qarori asosida, 2022-yildan boshlab, "Halollik vaksinasi" tamoyili bo'yicha davlat xizmatchilari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha maxsus o'quv kurslari muntazam ravishda tashkil etila boshladi. Shuningdek, davlat xizmatchilarini masofadan turib o'qitish va xususiy sektor vakillari hamda aholining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan maxsus elektron o'quv platformasi yo'lga qo'yish ham rejalashtirilgan. Qonunchilikka muvofiq, davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining va xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan zarur choralarni ko'rishni lozim. Bu vazifa har bir tashkilot rahbaridan, xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish uchun aniq choralar ko'rishni talab etadi.

So'nggi yillarda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning ahamiyati va ko'lemi kengaydi. Chunki korrupsiya nafaqat demokratiyaning, umuman, har qanday taraqqiyotning kushandasi ekani barchaga ma'lum. Shu ma'noda, o'tgan asrda yashab o'tgan amerikalik yozuvchi Teodor

Drayzerning “Sarmoyador” asarida aytilganidek, “Korrupsiya avj olgan davlat, go’yo ichidan yemirilgan mo’rt daraxtga o’xshab qoladi. Shak-shubha yo’qki, u birinchi jiddiy sinovga duch kelishidayoq ag’dariladi”.

Aytish joizki, korrupsiya darajasini kamaytirishga turli omillar ta’sir qiladi, ulardan biri – qabul qilinadigan qonun hujjatlarida korrupsiyaviy normalarning mavjudligi va bu normalarning amaliyotga joriy etilishining oldini olishdir. Manfaatlar to’qnashuvining oldini olishga qaratilgan ishlar, shu jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarga o’zgartirishlar kiritish bilan ham bog’liq. Chunki qonunchilikda korrupsiya va manfaatlar to’qnashuviga qarshi kurashishni tartibga soluvchi maxsus qonunlar, qarorlar yoki nizomlar bo’lmasa, bu jarayon huquqiy asosga ega bo’lmaydi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlar o’rtasidagi ziddiyatlar korrupsiya yoki manfaatlar to’qnashuvining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shunday salbiy oqibatlarining oldini olish uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan o’tkaziladi.

Korrupsiyaning har qanday ko’rinishiga qarshi ekspertizada normativ-huquqiy hujjat va ular loyihalarining korrupsiyaviy omillari aniqlanishi lozim bo’ladi. O’z navbatida, korrupsiyaviy omil korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyani yuzaga keltiradigan huquqiy normalar hisoblanadi. Davlat organlari va tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo’linmalarida halollik siyosatini ta’minlash, ya’ni xodimlar faoliyati va umuman, jamiyatda korrupsiya va manfaatlar to’qnashuvi ga qarshi kurashish madaniyatini oshirishda korrupsiyaga qarshi nazorat masalalari muhim o’rin egallaydi. Milliy va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, “kompleks-nazorat” mexanizmlari davlat va xususiy sektor faoliyatiga keng kirib bormoqda.

V.XULOSA

Manfaatlar to’qnashuvi davlat boshqaruvining samaradorligini ta’sir qiluvchi muhim huquqiy va siyosiy fenomen hisoblanadi. Tadqiqotda ko’rsatilganidek, manfaatlar to’qnashuvi huquqiy tizimda, ayniqsa davlat xizmatchilari faoliyatida, korrupsiyaning keltirib chiqarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, uning oldini olish va samarali nazorat o’rnatish, davlat boshqaruvining shaffofligini ta’minlash uchun zarurdir.

Maqolada manfaatlar to’qnashuvining huquqiy tabiati o’rganildi. Bu tushuncha nafaqat huquqiy, balki siyosiy va ijtimoiy kontekstda ham dolzarb bo’lib, davlatning ichki va tashqi siyosatini to’g’ri boshqarish, shuningdek, aholi uchun sifatli xizmatlar ko’rsatish uchun ham muhimdir. Manfaatlar to’qnashuvining keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari, ayniqsa, korrupsiya va qonunbuzarliklar shaklida o’zini ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvidagi manfaatlar to’qnashuvi muammolarini hal qilish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. O’zbekiston Respublikasida bu boradagi amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro tajribalarni o’rganish va ularni joriy etish, davlat organlarida shaffoflikni oshirish, shuningdek, davlat xizmatchilarining huquqiy va etik savodxonligini oshirish orqali manfaatlar to’qnashuvining salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin. Faqat shunda davlat boshqaruvining samaradorligi oshadi va korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O’zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli farmoni.
4. A.Sh.Bekmurodov *Korrupsiyaga qarshi kurashish* (darslik). Toshkent: O'zbekiston Yuridik Akademiyasi. (2020)
5. B.Toshev Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro normalarni milliy qonunchilikka implementasiya qilish // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista –Lawyer herald. № 5 (2020), s. 92-98)
6. B.Ismailov, *Davlat boshqaruvidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish: Muammolar va takliflar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Noshirlik Uy-chi. (2023).
7. Sommer, J. M. (2021). *Manfaatlar to'qnashuvi va maishiy korrupsiyaning ta'siri*. International Journal of Political Science, 12(3), 78–93.
8. United Nations (2020). *Korrupsiyaga qarshi Konvensiya: Texnik qo'llanma*. New York: UNODC
9. Xalqaro Etika Bo'yicha Hukumat Idorasi (2020). *Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha amaliy qo'llanma*. Washington, D.C.